

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA O‘YIN TEXNOLOGIYALARI ORQALI EKOLOGIK ONGNI SHAKLLANTIRISH

Sanginova Gulnozaxon

Qo‘qon universiteti ta‘lim kafedrası katta o‘qtuvchisi

Muhammadjonova Sarvinoz Shuhratjon qizi

Qo‘qon universiteti ta‘lim fakulteti Maktabgacha ta‘lim yo‘nalishi 1-24 guruh talabasi

Sarvinozmuhammadjonova1104@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20393616>

Annotatsiya

MTT tarbiyalanuvchilarida ekologik ong va tabiatga g‘amxo‘rlik hissini shakllantirishda o‘yin texnologiyalarining o‘rni juda kattadir. Bog‘cha yoshidagi bolalarga turli qiziqarli o‘yinlar, rolli o‘yinlar va oddiy tajribalar orqali tabiatni asrashni o‘rgatish usullari ko‘rsatilgan. Shuningdek, MTT tarbiyachilari uchun mashg‘ulotlarni qiziqarli tashkil etish bo‘yicha oddiy va samarali tavsiya qilinadi.

Kalit so‘zlar: MTT, bog‘cha bolalari, tabiatni asrash, ekologik ong, o‘yinlar orqali o‘rgatish.

Kirish

O‘zbekiston Respublikasi “Maktabgacha ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonunida maktabgacha ta‘limning asosiy maqsadi – bolalarni jismoniy, aqliy, ma‘naviy va ekologik jihatdan barkamol shaxs sifatida tarbiyalash deb belgilangan. Qonun bolalarda tabiatga ehtiyotkorlik, atrof-muhitni asrash ko‘nikmalarini shakllantirishni davlat siyosati darajasida qo‘llab-quvvatlaydi. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturida ekologik tarbiya maktabgacha ta‘limning asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan bo‘lib, unda o‘yin faoliyati orqali bolalarda tabiatni sevishtirish, tabiatdagi hodisalarni kuzatish va unga g‘amxo‘rlik qilishgan

Maktabgacha yosh bolaning shaxsiyati shakllanishining eng muhim davri bo‘lib bu davrda ekologik madaniyatni shakllantirish nafaqat tabiatga bo‘lgan muhabbat va mas‘uliyat hissini uyg‘otadi balki kelgusidagi ekologik savodxonlik va barqaror rivojlanishga asos yaratadi. O‘zbekistonda maktabgacha ta‘lim tizimi jadal rivojlanmoqda 2022-yilda Vazirlar Mahkamasining 229-son qarori bilan tasdiqlangan “Yer– bizning umumiy uyimiz” dasturi bog‘cha bolalariga maxsus ekologik ta‘lim-tarbiya dasturini joriy etib global tajriban i hisobga olgan holda milliy xususiyatlarni integratsiya qildi. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi (takomillashtirilgan nashri 2022-yil) ekologik tarbiyani rivojlanishning asosiy sohalari–“Tabiat va atrof-muhit” moduli orqali o‘yin faoliyati, kuzatish va loyihalar shaklida amalga oshirishni belgilab bolalarning tabiatni asrash ko‘nikmalarini shakllantirishni majburiy qilib qo‘ydi. 1. (Toshova Sh.T. Maktabgacha yoshdagi bolalarga atrof-muhitni asrabavaylash orqali sog‘lom turmush tarzini rivojlantirish. Interpretation and research 2023, Nazarova Shaxnoza Soyibjonqizi Turan International University Gumanitar Fanlar va Pedagogika fakulteti 4-kurs talabasi)

Ekologik madaniyat – bu insonning tabiatga ongli munosabati, uni asrash, boyliklarini tejab ishlatish va atrof-muhitga zarar yetkazmaslik madaniyatidir. Bolalarda bu tushunchaning shakllanishi dastlab oilada, so‘ngra maktabgacha ta‘lim tashkilotida amalga oshadi. O‘yin – bolaning eng sevimli faoliyat turi bo‘lib, uning orqali bola dunyoni anglaydi, tajriba orttiradi va xulq-atvorni o‘zlashtiradi. Ekologik mazmundagi o‘yinlar bola-ning tabiat bilan bevosita aloqasini kuchaytiradi, tabiatdagi o‘zgarishlarga nisbatan e‘tiborini oshiradi.

Maktabgacha yosh ekologik madaniyatni shakllantirishda eng ma'qul davr hisoblanadi. Bu yoshda bolaning dunyoqarashi va ongi, odob-axloq me'yorlari rivojlanayotgan bo'ladi. Bu yoshda inson, bola go'zallikka, jonli va jonsiz tabiat bilan hamohang bo'lishga, jamoaviy va do'stona munosabatlarga tayyorlik, ruhiy yuksalish va o'zini anglashga, olamni chegaralarsiz qabul qilishga, yuksak axloqiy sifatlarga intiladi. Bola o'zgalarning qayg'usini his qiladi, o'zning va boshqalarning adolatsizligini og'ir qabul qiladilar, kattalarning yaxshi ishlariga va sifatlariga taqlid qiladilar. Bolaning beg'ubor qalbi moddiy va ruhiy olamni o'zida birlashtiradi. Mana shu birlashuvsiz bolada ekologik dunyoqarash va ongni shakllantirish imkonsiz.

Ekologik ta'lim-tarbiya maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalar orasida bebaho insonparvarlik munosabatini rivojlantiradi: tabiatning barcha ob'ektlariga nisbatan qiziqishini uyg'otadi, atrof-muhitning shart-sharoitini o'rganish, unga g'amxo'rlik qilish malakalarini rivojlantiradi.

Shuningdek, o'yin texnologiyalarining o'quv-tarbiyaviy jarayondagi o'rni aniq ko'rsatib berilgan. To'xtayev R. “Ekologik tarbiya asoslari” asarida ekologik tarbiyani shaxs rivojlanishining muhim tarkibiy qismi sifatida talqin etadi. Uning fikricha, bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirishda o'yin faoliyatini to'g'ri tashkil etish orqali ekologik ong, ekologik his-tuyg'u va ekologik xulq-atvorni uyg'un rivojlantirish mumkin. Shirinov G. “Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirish” nomli tadqiqotida ekologik madaniyatni shakllantirishda o'yinlar, kuzatishlar, tajribalar va ijodiy faoliyatning o'zaro uyg'unligini ta'kidlaydi hamda o'yinlarni ekologik ta'lim vositasi sifatida tizimli qo'llash metodikasini ishlab chiqadi. Muallifning fikricha, o'yin orqali bola tabiatni o'rganadi, his qiladi va unga mehr qo'yadi.

Maktab-gacha ta'limda ekologik mazmundagi o'yinlar quyidagi shakllarda tashkil etiladi.

- didaktik o'yinlar (“Bu qaysi daraxt?”, “Hayvonni top”, “Foydali va zararli narsalar”);
- harakatli o'yinlar (“Quyosh chiqdi”, “Yomg'irdan yashirin”, “Gul ekamiz”)
- rolli o'yinlar (“Ekologlar”, “Bog'bonlar”, “Hayvonot bog'i xodimlari”)
- innovatsion o'yinlar (multimedia texnologiyalari yordamida virtual tabiat muhitini yaratish, masalan, “Ekologik safar” interaktiv o'yini).1.(Xolboyeva Gulnora UlashovnaTerDPI katta o'qituvchisi, PhDDolliyeva Xayrigul Namoz qiziTerDPI magistranti)

Tabiatda ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni tarbiyalash maktabgacha ta'lim tashkilotlarining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish jarayonida tabiatga nisbatan ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni tarkib toptirishga katta e'tibor beriladi.2.(Soliyeva Gulhayo Shokirjon qizi, 2Jo'rayeva Farangiz Xusnitdinova 1Qo'shtepa tumani 12-sonli DMTT direktori, 2Oqdaryo tumani 13- DMTT direktori <https://doi.org/10.5281/zenodo.11288319>).

Maktabgacha yoshda bu jarayon o'yin va amaliy faoliyat orqali samarali amalga oshiriladi. Milliy o'yinlar bolalarda tabiat bilan uyg'unlikda yashash ko'nikmalarini shakllantiradi. Masalan:

- “Gul ekamiz” o'yini orqali o'simliklarga g'amxo'rlik.
- “Qushlarga yordam” o'yini orqali hayvonot dunyosiga mehr uyg'otish.

Bu o'yinlar bolalarning nafaqat jismoniy, balki ekologik tarbiyasiga ham xizmat qiladi. Xalq ertaklari, maqollar, topishmoqlar va rivoyatlar orqali bolalarga ekologik tushunchalar singdiriladi. Masalan:

- “Yer – ona, suv – hayot” kabi maqollar.
- tabiatni asrash g'oyasi aks etgan ertaklar.

Bu vositalar bolalarda tabiatga nisbatan qadriyatli munosabatni shakllantiradi. Milliy urf-odatlar (Navro'z bayrami, daraxt ekish an'analari va boshqalar) orqali bolalarda:

- tabiatni asrash madaniyati.

- jamoaviy faoliyat.

- ekologik mas'uliyat rivojlanadi. Masalan,

Navro'zda daraxt ekish yoki tozalash ishlari bolalarda amaliy ekologik ko'nikmalarni shakllantiradi. Milliy qadriyatlarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish quyidagi natijalarni beradi:

- interaktiv mashg'ulotlar samaradorligi oshadi.
- bolalarda qiziqish kuchayadi.
- ekologik bilimlar mustahkamlanadi.

Masalan, rolli o'yinlar, sahnalashtirish va STEAM elementlari orqali ekologik mavzularni o'rgatish. Tajriba ishlari natijasida quyidagilar aniqlandi:

- bolalarda tabiatga ehtiyotkor munosabat shakllandi.
- ekologik bilimlar darajasi oshdi.
- amaliy ko'nikmalar rivojlandi.

• jamoaviy ishlash malakalari mustahkamlandi.3.(Sultonova Nurxon Anvarovna Qo'qon DU Maktabgacha ta'lim kafedrası dotsenti).

Ekologik ongni rivojlantirish usullariMaktabgacha ta'lim muassasalarida ekologik ongni rivojlantirish uchun turli metod va usullardan foydalanish mumkin:

1. Amaliy faoliyat-gullar ekish.

-daraxtlarga suv quyish.

-hayvonlarga g'amxo'rlik qilish.

Bu faoliyat bolalarda tabiatga mehr uyg'otadi.

2. Sayr va ekskursiyalar

Bolalarni tabiat qo'yniga olib chiqish orqali ular real muhitni kuzatadi va o'rganadi.

3. Ekologik ertak va hikoyalarErtaklar orqali bolalarga tabiatni asrash g'oyasini singdirish mumkin

4. Rasmlar va videolarVizual materiallar bolalarning tasavvurini kengaytiradi.

5. Tajribalar (eksperimentlar)

Oddiy tajribalar orqali bolalar tabiat qonuniyatlarini tushunadi

-suvning bug'lanishi.

-o'simliklarning o'sishi.

Oilaviy tarbiyaning roli ekologik tarbiya faqat ta'lim muassasasida emas, balki oilada ham davom etishi zarur. Ota-onalar:

-bolalarga tabiatni asrashni o'rgatishi.

-chiqindilarni to'g'ri tashlashni ko'rsatish.

-suv va elektrni tejashga odatlantirishi kerak.

Agar bola oilada ekologik madaniyatni ko'rsa, u bu odatlarni tez o'zlashtiradi.4.(Sayfulloyev G'ulom MaxmudovichBuxoro davlat pedagogika instituti ,Maktabgacha ta'lim b.f.n.,professor.Jurayeva Iroda BotirovnaBuxoro davlat pedagogika instituti ,Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1-bosqich magistranti).

Ekologik ongni rivojlantirish. Bolalar ekologik muammolar va tabiatning muhimligi haqida aniq tushunchaga ega bo'ladilar. Syujetli-rolli o'yinlar orqali bolalar atrof-muhitning holatini

tushunishga, tabiatni asrab-avaylashning zarurligini sezishga o'rganadilar. Masalan, chiqindilarni to'g'ri ajratish, suvni tejash, o'simliklarni parvarish qilish kabi ijobiy ekologik xatti-harakatlarni o'zlashtiradilar.

Jamoaviy ish va hamkorlikni rivojlantirish. Ekologik syujetli-rolli o'yinlar bolalarda jamoaviy ish va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bolalar birgalikda tabiatni himoya qilish, o'rmonni saqlash yoki hayvonlarni asrab-avaylash kabi vazifalarni bajarishadi. O'yinlar davomida ular bir-biriga yordam berish, maslahatlashish va birgalikda harakat qilishni o'rganadilar.

Empatiya va mas'uliyat hissini rivojlantirish. Bolalar ekologik o'yinlar orqali tabiatga va uning resurslariga mehr va hurmat bilan qarashni o'rganadilar. Hayvonlarni himoya qilish, o'simliklarni parvarish qilish va toza muhit yaratishga bo'lgan ehtiyojni his qilishadi. Bularning barchasi bolalarda mas'uliyat hissini va empatiya tuyg'usini shakllantiradi.5.(Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasida pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent Rasulxo'jayeva Madina Axmadjonovna Nizomiy nomidagi TDPU maktabgacha ta'lim fakulteti talabasi Karimbayeva Maftuna Ravshanbek qizie-mail karimbayevamaftuna04@gmail.com).

Ekologik stress –bu inson organizmining noqulay ekologik sharoitlarga (shovqin, iflos havo, yuqori harorat, sun'iy yoritish, tor joy, yashil hududlarning yetishmasligi) moslashishda yuzaga keladigan psixologik va fiziologik zo'riqish holatidir. Maktabgacha yoshdagi bolalar bu kabi omillarga nisbatan yanada sezuvchan bo'lib, ularning asab tizimi hali to'liq shakllanmaganligi sababli stressni bartaraf etish qobiliyati past bo'ladi.

Ekologik stressning asosiy belgilari quyidagilardan iborat:

tez asabiylashuv va yig'loqilik;

uyqu buzilishi; diqqatning susayishi;

immunitetning pasayishi;

jismoniy holsizlik;

o'yin va muloqotga bo'lgan qiziqishning kamayishi.

Bu holat o'z vaqtida bartaraf etilmasa, bolaning umumiy rivojlanishiga, ijtimoiy moslashuviga va ta'lim jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Tabiat terapiyasi –bu insonni tabiiy muhit bilan bevosita aloqada bo'lish orqali ruhiy va jismoniy tiklanishga yo'naltirilgan pedagogik-psixologik yondashuvdir. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun bu usul ayniqsa muhim bo'lib, ular orqali bola atrof-muhit bilan uyg'unlashadi, mushohada, sezgi va ijodiy tafakkuri rivojlanadi.6.(Mamatqulova Shoxsanam Dilshodovna Samarqand viloyati Urgut tumanidagi "Bu yurt kelajagi bolajonnikidir" DXSHMTT direktori).

Bolalarni yoshligidan ona Vatanga, atrof muhitga muhabbat ruhida tarbiyalash maktabgacha ta'lim pedagogikasi oldida turgan muhim vazifalardan hisoblanadi. Shu bois, maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik madaniyatni oshirishda ta'lim-tarbiya jarayonini amaliyot bilan bog'lab tashkil etish yuqori samara beradi. Bolalarga ekologik tarbiya berishda o'zi yashaydigan muhitni ko'klamzorlashtirish, mevali va manzarali daraxtlar ekish, xonaki o'simliklar parvarishlash, uy hayvonlariga ozor bermaslik, ko'cha va xiyobonlarda, bog' va dam olish hududlarida ozodalikka rioya qilish qoidalariga amal qilishga o'rgatish muhim ahamiyatga ega. Ekologik madaniyat avvalo oiladan, ta'lim-tarbiya maskanidan boshlanadi. Ekologik dunyoqarashni shakllantirishning negizi oiladagi tarbiyaga bevosita bog'liqdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirishda oila bilan hamkorlik faoliyati pedagoglar

kutgan natijani to'laqonli ravishda oqlaydi.7.(Rahmonova Zarnigor Abduqahhorovna Andijon viloyati, Oltinko'l tumani 33-sonli DMTT direktori <https://doi.org/10.5281/zenodo.11287921>).

Bolalarni tarbiyalashda tabiatning ahamiyati. Bu bolaning o'sib tug'ilgan joyi haqidagi boshlang'ich bilimlarni bilishi, yer haqidagi asosiy bilimlarni kengaytirish va yerga bo'tgan munosabatning aqliy, axloqiy, estetik, jismoniy tomondan rivojlantirishdan iborat. Tabiat - bitmas-tuganmas xazinadir. O'simliklar dunyosi, hayvonot olami yosh qalbning to'g'ri o'sib shakllanishida, tabiatda bo'ladigan voqea-hodisalarning sir asrorini o'tganib voyaga yetishida katta manba bo'lib xizmat qiladi. I abiatdagi narsalar ikki qismdan: jonsiz va jonli tabiatdan iboratdir. Jonsiz tabiatga yer, quyosh, yulduzlar, suv, havo, toshlar, tuproq, jonli tabiatga esa o'simliklar, hayvonlar, mikroorganizmlar, insonlar kiradi. Jonsiz tabiat deyilishiga sabab ular oziqlanmaydi, o'smaydi, ko'paymaydi, rivojlanmaydi. Masalan, toshni olsak, unga suv ham, havo ham kerak emas.8. (Quchqorova N.M., Avazmetova I.R., Ikramova D.U. Bolalami tabiat bilan tanishtirish [Matn] : darslik /N.M. Quchqorova, I.R. Avazmetova, D.U. Ikramova. - Toshkent: Bookmany print, 2023.)

Tabiat burchagi bolalarni tabiat bilan tanishtirishga, kichkintoylarda ularga mehr paydo etish, muhabbat uyg'otish ishida katta yordam beradi. Tabiat burchagidagi jonzotlarni bolalar har kuni ko'radi, bu narsa tarbiyachilar ishini yengillashtiradi: ular tirik mavjudotlarni muntazam kuzatib boradi va parvarishlaydi. Ularni parvarish qilish natijasida bolalar zaminimizdagi o'simliklar va hayvonot dunyosining nihoyatda turlitumanligi to'g'risida, o'simliklar, hayvonlar qay tariqa o'sib rivojlanib borish.

Tabiatdagi yilning istagan faslida go'zallik va rang-baranglik, o'zgarishlar bolalarning bevosita hissiy holatiga ta'sir etadi, ularda kuzatish, so'rash, fikr yuritish, hikoya qilish istagini uyg'otadi. Bu narsa ularning mantiqiy fikrlash va nutqini o'stirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi. Bu borada ekologiya haftaliklarining tutgan o'rni beqiyos. Chunonchi, har faslda bir marta ekologiya haftaliklari o'tkazilib, mashg'ulotlardan tashqari tadbirlar tizimi amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

Bolalarning tabiatni muhofaza qilish amaliyotida uch xil faoliyatdan (ta'lim, mehnat, o'yin) keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, bolalarning ekologik mazmundagi o'yin faoliyati ta'lim unsurlariga ega bo'lib, tegishli ko'nikmalarni hosil qilishda ularning ahamiyati katta bo'ldi.

Didaktik o'yin o'quv-bilish vazifalari (m: narsaning xossalari va sifatini aniqlash, turli buyumlarni tasnif qilish va guruhlash) o'yin bilan (topish, rol ijro etish, musobaqalashish) qo'shib olib boriladiki, bunda didaktik o'yin ta'limning alohida shakli – yengil, tez va bolalar tomonidan oldindan mo'ljallanmagan bilimlarni o'zlashtirish shakliga aylanadi. M: "Bu hayvonning nomi "Qizil kitob"ga kiritilganmi? Shu hayvonni top" o'yini. Tarbiyachi bolalarni doira shaklida turg'izib, hayvon nomini aytadi va ko'ptokni biror bolaga otadi. Bola ko'ptokni olib olib, "Qizil kitob"ga kirgan yoki kirmaganligini aytadi.

Tabiatni muhofazasiga doir o'yin mazmunini ishlab chiqishda shaxsning axloqiy pozitsiyasi, odamlarning o'zaro munosabatlari, ularning tabiiy muhitga insonparvarlik, g'amxo'rlik bilan munosabatlari markaziy o'rinda turmog'i lozim. Rolli o'yinlar har bir ishtirokchiga mustaqillik va uyushqoqlik namoyon etish imkonini berdi.

Ijodiy rolli o'yinlar tushunchalarni, tasavvurlarni, faktlarni tiklash, qayta guruhlash tariqasida kechdi. M: rolli o'yin sifatida bolalardan biri maqbul va nojo'ya harakatlar qilib ko'rsatadi. Nojo'ya xatti-harakatga kelganda, bolalar: "To'xta!" – deb buyruq berishlari kutiladi. Kuzatishlarning ko'rsatishicha, bunday paytlarda ko'p vaqt sukutda bo'ladigan bolalarda ham qat'iyat, jur'at paydo bo'ldi. Bu esa o'yinning muhim jihati hisoblanadi.

Ekologik ongni rivojlantirishda o'yinlarning ahamiyati.

Tabiatni o'rganishda ekologik ongni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Ta'limiy o'yinlar orqali bolalar ekologik tizimning muhimligini tushunadilar. Masalan, suvni tejash, tuproqni ifloslantirmaslik, o'simliklarni parvarishlash kabi asosiy ekologik qadriyatlarni o'zlashtirishda o'yinlar yordam beradi. Tabiatni himoya qilishga bo'lgan mas'uliyatni o'rgatish, bolalar uchun sodda va qiziqarli usulda amalga oshiriladi. Ekologik ongni rivojlantiruvchi o'yinlarning maqsadi bolalarni tabiat va atrof-muhitga bo'lgan mas'uliyatli munosabatni shakllantirishga yo'naltirilgan. Ushbu o'yinlar bolalarda ekologik bilimlarni chuqurlashtirish, tabiatni sevisish va uning resurslariga ehtiyotkorlik bilan yondashish hissini uyg'otishni maqsad qiladi. O'yinlar orqali bolalar tabiiy resurslar, ularning o'zaro bog'liqligi, atrof-muhitni muhofaza qilish, chiqindilarni kamaytirish, suvni tejash kabi muhim ekologik qadriyatlarni o'rganadilar.

Ekologik ongni rivojlantiruvchi o'yinlarning maqsadi quyidagilar

1.Tabiatga nisbatan hurmatni shakllantirish: Bolalarga tabiatning go'zalligini va uning ahamiyatini tushuntirish, unga ehtiyotkorlik bilan yondashish.

2.Ekologik bilimlarni oshirish: Tabiatdagi jarayonlar, o'simliklar, hayvonlar va ekologik tizimlarning o'zaro bog'liqligini o'rgatish.

3.Atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatni rivojlantirish: Bolalarga atrof-muhitni himoya qilish, chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash kabi amaliy ekologik qadamlarni o'rgatish.

4.Kognitiv va ijodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash: Ekologik o'yinlar bolalar uchun qiziqarli va interfaol shaklda ekologik bilimlarni o'zlashtirishni ta'minlaydi, bu ularning kreativ fikrlash qobiliyatini oshiradi.

5.Ekologik axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish: Tabiatni va uning resurslarini asrash, ularni isrof qilmaslik va kelajak avlodlar uchun himoya qilish zarurligini bolalarga tushuntirish. Shu tarzda, ekologik ongni rivojlantiruvchi o'yinlar bolalarga tabiat bilan uyg'unlikda yashash, uning qadriyatlarini anglash va uning muhofazasi yo'lida mas'uliyatni o'z zimmasiga olishni o'rgatadi.9.(Sidiqova Yulduz Sobirovna Osiyo Xalqaro universiteti "Pedagogika va psixologiya" kafedrasida o'qituvchisi. Turobova Shahnozabonu Turdiali qizi Osiyo xalqaro universiteti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi).

Faol va sport o'yinlari

- **"Toza o'yinlar" (Clean Games):** Jamoalarga bo'lingan holda hududlarni chiqindilardan tozalash va ularni saralash bo'yicha musobaqa. Bu o'yin nafaqat tabiatga yordam beradi, balki jamoaviy ruhni oshiradi.
- **"Green Games":** Xalqaro miqyosda o'tkaziladigan yoshlar marafonlari va plogging (yugurish va chiqindi yig'ish) musobaqalaridir.

3. Bolalar uchun ta'limiy va ijodiy o'yinlar

- **Chiqindilarga ikkinchi hayot:** Plastik idishlar, qog'oqlar va boshqa tashlandiq materiallardan foydalanib turli ijodiy buyumlar yasash o'yini.
- **Tabiat tovushlari va izlarini topish:** Hayvonlarning izlarini ajratish, daraxtlarni tanish va qushlarning ovozigacha ko'ra ularni aniqlash tabiatni o'rganishdagi eng yaxshi mashg'ulot hisoblanadi.

4. Stol o'yinlari va viktorinalar

- **Ekologik savol-javoblar:** "Iqlim o'zgarishi" yoki "Yashil sayyora" mavzularida kartochkali viktorinalar. Bunda o'yinchilar atrof-muhitni muhofaza qilish qoidalari bo'yicha savollarga javob berishadi.

Milliy tarbiya texnologiyalarining ekologik mazmuni O'zbek xalq pedagogikasi tabiat bilan uyg'un yashash tamoyillariga asoslangan. Milliy tarbiya texnologiyalari deganda biz faqat an'analarni emas, balki ularni bugungi zamonaviy ta'lim metodikasi bilan birlashtirishni tushunamiz:

1. "Uvol" tushunchasi texnologiyasi: Bolaga suvni isrof qilmaslik, nonni yerga tashlamaslik orqali tejamkorlik va tabiat boyliklarini qadrlash o'rgatiladi. Bu metodika MTTda o'yinlar, oilada esa ota-onaning shaxsiy namunasi orqali amalga oshiriladi.

2. "Esdalik daraxti" an'anasi: Xalqimizda farzand tug'ilganda daraxt ekish odati bor. Bu an'anani MTT miqyosida "Mening maktabgacha ta'lim tashkilotim –mening bog'im" ko'rinishida joriy etish mumkin.

MTT va oila hamkorligining zamonaviy shakllari Muvaffaqiyatli ekologik tarbiya uchun tarbiyachi va ota-ona bir xil tilda gapirishi kerak. Buning uchun quyidagi hamkorlik mexanizmlari taklif etiladi:

"Ekologik mehmondo'stlik": Ota-onalarni MTTga taklif qilib, bolalar bilan birga o'simliklarni parvarishlash bo'yicha master-klasslar o'tkazish. "Tabiat laboratoriyasi"

Oila davrasida uy sharoitida o'simlik o'stirish (masalan, loviya yoki rayhon) va uning o'sish bosqichlarini MTTda tengdoshlariga so'zlab berish. Media-hamkorlik:

Telegram yoki boshqa platformalarda "Biz tabiatni asraymiz" guruhlarini tashkil etish, u yerda oilaviy ekologik sayohatlar rasmlarini ulashish.

Milliy qadriyatlar orqali tabiatga muhabbat uyg'otish milliy o'yinlar va folklor namunalari bolaning his-tuyg'ulariga ta'sir etishning eng samarali yo'lidir.

Chaqiriqlar va o'lanlar: Masalan, yomg'ir chaqirish yoki bahorni kutib olish bilan bog'liq xalq qo'shiqlari bolada tabiatga tirik mavjudot sifatida qarashni shakllantiradi.

Ertak-terapiya: "Zumrad va Qimmat" ertagi misolida tabiatga yaxshilik qilgan kishi mukofotlanishi, yomon munosabatda bo'lgan esa jazolanishi tahlil qilinadi.

AMALIY TAVSIYALARI.

"Yashil burchak" musobaqasi: Har bir guruh va oila o'rtasida eng yaxshi parvarishlangan uy o'simligi tanlovini o'tkazish.

2. "Chiqindidan mo'jiza": Oila a'zolari bilan birga plastik idishlar yoki qog'ozlardan milliy uslubda o'yinchoqlar yoki bezaklar yasash. Bunda qayta ishlash madaniyati rivojlanadi.

3. "Tabiat bilan muloqot" daqiqalari: Har kuni MTTdan qaytgach, ota-onaning boladan "Bugun tabiat uchun nima yaxshilik qilding?" deb so'rashi odatini shakllantirish.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'limda ekologik tarbiya faqatgina o'simliklar nomini yodlatishdan iborat emas. Bu –bolaning ruhiga milliy qadriyatlarni singdirish orqali uni tabiatning bir qismi ekanligiga ishonch hosil qilishdir. MTT va oila hamkorligi tizimli yo'lga qo'yilgan taqdirdagina biz "Yashil makon" g'oyasini kelajak avlod ongiga muhrlay olamiz. Milliy tarbiya texnologiyalari asosida shakllangan ekologik madaniyat –bu nafaqat ekologiyani asrash, balki millat genofondini va ma'naviyatini himoya qilish demakdir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Toshova Sh. T. Maktabgacha yoshdagi bolalarga atrof-muhitni asrabavaylash orqali sog'lom turmush tarzini rivojlantirish. Interpretation and research 2023, Nazarova Shaxnoza Soyibjonqizi Turan International University Gumanitar Fanlar va Pedagogika fakulteti 4-kurstalabasi.

2. Soliyeva Gulhayo Shokirjon qizi, 2Jo‘rayeva Farangiz Xusnitdinova 1Qo‘sh tepa tumani 12-sonli DMTT direktori, 2Oqdaryo tumani 13- DMTT direktori <https://doi.org/10.5281/zenodo.11288319>.
3. Sultonova Nurxon Anvarovna Qo‘qon DU Maktabgacha ta‘lim kafedrası dotsenti.
4. Sayfulloyev G‘ulom Maxmudovich Buxoro davlat pedagogika instituti ,Maktabgacha ta‘lim b.f.n., professor. Jurayeva Iroda Botirovna Buxoro davlat pedagogika instituti, Maktabgacha ta‘lim yo‘nalishi 1-bosqich magistranti.
5. Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta‘lim metodikasi kafedrası pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent Rasulxo‘jayeva Madina Axmadjonovna Nizomiy nomidagi TDPU maktabgacha ta‘lim fakulteti talabasi Karimbayeva Maftuna Ravshanbek qizie-mail karimbayevamaftuna04@gmail.com.
6. Mamatqulova Shoxsanam Dilshodovna Samarqand viloyati Urgut tumanidagi "Bu yurt kelajagi bolajonnikidir" DXSHMTT direktori.
7. Rahmonova Zarnigor Abduqahhorovna Andijon viloyati, Oltinko‘l tumani 33-sonli DMTT direktori <https://doi.org/10.5281/zenodo.1128792>.
8. Quchqorova N.M., Avazmetova I.R., Ikramova D.U. Bolalami tabiat bilan tanishtirish [Matn] : darslik /N.M. Quchqorova, I.R. Avazmetova, D.U. Ikramova. - Toshkent: Bookmany print, 2023.
9. Sidiqova Yulduz Sobirovna Osiyo Xalqaro universiteti “Pedagogika va psixologiya” kafedrası o‘qituvchisi. Turobova Shahnozabonu Turdiali qizi Osiyo xalqaro universiteti Maktabgacha ta‘lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi.